

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

XUSHMURODOVA MADINA SHAYMANKULOVNA

**O‘zbekistonda elektron savdo faoliyatini rivojlantirish va
samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini
takomillshtirish**

08.00.05- Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Xushmurodova Madina Shaymankulovna

О'zbekistonda elektron savdo faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizminlarini takomillashtirish3

Хушмуродова Мадина Шайманкуловна

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития и повышения эффективности электронной торговой деятельности в Узбекистане27

Khushmurodova Madina Shaymankulovna

Improving organizational and economic mechanisms for the development and increase in the efficiency of electronic trading activities in Uzbekistan51

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....55

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.PhD/Iqt4029 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning (www.sies.uz) veb-sahifasida va "ZiyoNet" (www.ziynet.uz) axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urazov Komil Baxromovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tuxliev Iskandar Suyunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Axrorov Farxod Baxriddinovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muxandislik instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9 uy. Tel: (998 66) 233-19-84; Faks:(998 66) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9 uy. Tel: (998 66) 233-19-84; Faks:(998 66) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ da tarqatildi.

(2024-yil "____" _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Pulatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d, dotsent

M. M. Muxammedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayoni chuqurlashib borishi, global va milliy-mintaqalar doirasida savdo aloqalarining rivojlanishining yangi bosqichida elektron tijoratning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi kuzatilmoqda. "IT texnologiyalarining ustuvorligi va savdo faoliyatini tashkil qilishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etilishi tufayli elektron tijorat eng yirik korporatsiyalarning muntazam tadbirkorlik faoliyatiga aylanishiga olib kelib, ularning yillik o'rtacha yillik o'sishi dunyoda 6 foizni tashkil etmoqda. 2025 yilda elektron tijorat hajmi 7391 million AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda"¹. Bugungi kunda jahon miqyosida elektron savdo faoliyatini rivojlantirishda uni amalga oshirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy qilish dolzarbligicha qolmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish, jumladan savdo xizmatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda zamonaviy talablarga ko'ra elektron savdo faoliyatini samarali rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada savdo sohasini raqamli va innovatsion texnologiya-larga ko'ra rivojlantirish, chakana va ulgurji savdo makonida an'anaviy va elektron savdoni uyg'un rivojlantirish, strategik boshqaruvni tashkil qilish kabi mavzusidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini, jumladan chakana savdo sohasini sifat jihatdan rivojlantirish, bu borada elektron tijoratni innovatsion rivojlantirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. "... birinchi navbatda, odamlar tez-tez duch keladigan sohalarni raqamlashtirish va shu orqali fuqarolar hayotini osonlashtirish zarur"². Ushbu vazifani amalga oshirishda elektron tijoratning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga ko'ra savdo tashkilotlari raqobatbardoshligini oshirish, klasterli va elektron tijoratni rivojlantirish, prognoz parametrlarini ishlab chiqishni kabilar yuzasidan tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-oktyabrdagi 825-son "Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", 2016-yil 2-iyundagi PKM-185-son "Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalariga o'zgartirish va

¹ Statista ma'lumotlariga asoslanib .

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 22-sentabr kuni sanoat va hududlarda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni joriy etish masalalariga bag'ishlangan mafkuraviy konferensiyada . <https://yuz.uz/news/prezident-raqamli-iqtisodiyotsiz-mamlakat-iqtisodiyotining-kelajagi-yoq>

qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida’gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganish darajasi. Xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotini shakllantirishning nazariy asoslari, resurslardan samarali foydalanish, axborot texnologiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri Keyns J.M., Marshal A., Fisher M., Erenberg R.D., Smit R.S., Pigu A., Shumpeter Yu.A va boshqalar kabi xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan³.

Elektron tijoratni rivojlantirishning nazariy va uslubiy masalalari Goldovskiy I., Kozye D., Uspenskiy I.N., Yurasov A., Ilays E., Shnayder D., I Bo Jao, Steffano K., Xossein B. va boshqalar kabi xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan⁴.

An’anaviy chakana savdo transformatsiyasining dastlabki bosqichlarida elektron tijoratni rivojlantirish xususiyatlari M.Q.Pardaev, M.E.Pulatov, M.M.Muhammedov, J.R.Zaynalov, K.J.Mirzaev, B.Sh.Safarov, B.A.Abdukarimov, D.X.Aslanova, J.I.Isroilov, K.B.Urazov, M.T.Alieva⁵, R.Ayupov, D.Turdibaev,

³ Кейнс Дж.М., Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова, – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. - М.: Прогресс-Т.3. 1984. -119 с.; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987. p-500; Эренберг Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика / Пер. с англ. – М., 1996, 34-б.; Пигу А. Экономическая теория благосостояния / Пигу А.: В 2 т. - М.: Прогресс - Т.2 – 1985. – 240 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.

⁴ Голдовский И., Безопасность платежей в Интернете, Издательство: Питер, 2001; Козье Д., Электронная коммерция, Русская редакция, 1999 г.; Успенский И.В., Интернет-маркетинг, Учебник.- СПб.: Изд-во СПГУЭиФ, 2003 г.; Юрасов А., Основы электронной коммерции, уч.из Tempus, 2016 г.; Илайес Э., Электронная коммерция, Практическое руководство, из. ДиаСофтЮП, 2002 г.; Шнайдер Д., Метакапитализм и революция в электронном бизнесе. Какаими будут компании в XXI веке. Альпина Паблишер. 2001 г.; Yi-Bo Zhao, «Environmental benefits of electronic commerce over the conventional *retail trade*? A case study in Shenzhen, China», Science of The Total Environment 8 May 2019.; Стеффано К., Жуанито Э., The E-Commerce Book, Building the E-Empire, eBook ISBN: 9780080518800, October 16, 2000; Хоосейн Б., Electronic Commerce, eBook ISBN: 9780080505299, August 23, 2001.

⁵ Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд.1998.с.282; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Д.К.Усманова, Г.М.Порсаев. Рақамли иқтисодиёт асослари. Дарслик.- Т.: Фан ва технологиялар нашриёти, 2020.-248 б; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Адукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик, II қисм Т.: «Фан ва технология». 2008.; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук- Киев. 1992 – С. 20. Уразов К.Б. Савдода бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш. – Тошкент: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” нашриёт уйи, 2004.-336-бет. Алиева М.Т. Совершенствование менеджмента туристической индустрии в Узбекистане. 2019 г.

⁶ Ayupov R., «Elektron tijorat asoslari», elektron kitob, 2020 y. <https://kitobxon.com/uz/kitob/elektron-tijorat-asoslari>; Turdiboev D., «Elektron tijorat tizimlari va ularning ahamiyati», <http://library.ziyonet.uz/uz/-book/80012>,

A.Raximov, N.B.Ruziyeva, K.Urazaliyev, Y.Urinov, M.Nuralieva, M.Yuldashev, Sh.Z.Karimova, L.U.Maxmudov va boshqa shu kabi mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan ⁶.

Yangi O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanish sharoitida elektron savdoni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining ayrim jihatlari o‘rganildi. Shu bilan birga, innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etish, mavjud platformalar va savdo maydonchalarining konversiyasini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali elektron savdo faoliyati samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha o‘rganilmaganligi ushbu mavzu bo‘yicha chuqur ilmiy-uslubiy tadqiqotlar o‘tkazish zarurligini taqozo etdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy o‘quv yurtining ilmiy – tadqiqot ishlari bilan aloqasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq № SRITU-18/02-“Turizm va madaniy merosni samarali rivojlantirishning innovatsion usullari” mavzusida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda elektron savdo faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

respublikada elektron savdo va uni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni o‘rganishga kontseptual yondashuvlarni ishlab chiqish;

yangi iqtisodiy sharoitlarda elektron savdoning ta'riflari, tasniflari va rivojlanishini o'rganish;

elektron savdoning iqtisodiy mazmunini muallif talqiniga aniqlik kiritish;

elektron savdoning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining xususiyatlarini ochib berish va ularning samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni baholash;

elektron savdo kengaytirish sharoitida respublikada savdo faoliyatini rivojlantirish tendentsiyalari va muammolarini aniqlash;

Samarqand viloyatida elektron savdo rivojlanishini sotsiologik o‘rganish;

2016; Raximov A., «Elektron to‘lov tizimlari va ularning ahamiyati», <http://library.ziyonet.uz/ru/book/8216>, 2014; Рузиева Н.Б. Пути совершенствования организационно-экономического механизма инновационного развития сферы услуг. Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам. Самарканд, 2023-с.26.; Urazaliyev K., “Elektron tijorat va uni soliqqa tortish masalalari”. Dissertatsiya. 2019-y.; Y.Urinov. Chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini baholash tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiya avtoreferati. T.:2024. S.12.; Nuraliyeva M., “Elektron tijoratda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish”, 2022, <https://oak.uz/pages/7131>; Yuldashev M., “Jahon iqtisodiyotiga kirish sharoitida O‘zbekistonda elektron tijorat tizimining rivojlanishi”, i.f.n.ligi dissertatsiyasi, Fanlar akademiyasi, 2005.; Karimova Sh.Z. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat vositalaridan foydalanishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiya avtoreferati. T.:2024. S.12-15.; Maxmudov L.U. Xizmatlar sohasida elektron tijoratni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiya avtoreferati. Samarqand:, S.24.; «Ko‘p tomonlama aloqalar bilan shakllanuvchi elektron tijoratning tarkibiy elementlari tasnifi», «Mahalliy mahsulotlar eksportini xalqaro marketing strategiyalari asosida rivojlantirish» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. 19-20.11.2021., 261 b.

zamonaviy supermarketlarda elektron savdo faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

raqamlashtirish sharoitida savdo sohasini rivojlantirishning muhim mexanizmi sifatida klaster yaratish bo'yicha takliflarni asoslash;

2026 yilgacha Samarqand viloyatida elektron savdoni rivojlantirish va samaradorligini prognozlash;

zamonaviy supermarketlarda elektron savdo va tijorat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasida savdo faoliyatini bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti savdo faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda yuzaga keladigan iqtisodiy-tashkiliy munosabatlar iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiy tadqiqotida iqtisodiy tahlil, abstract fikrlash, PEST tahlil, qiyosiy tahlil, induksion va deduksion tahlil, monografik kuzatish, ekspert baholash, sotsiologik so'rov, intervyu va prognoz kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elektron savdo kategoriyasining iqtisodiy mohiyati aholining savdo xizmatlariga bo'lgan talabi tovarlarni sotib olish-sotish jarayonida tovarlar ta'minotini va iste'molchilar talabi tarkibining raqamli texnologiyalarga ko'ra to'lakonligini shakllantirishga ko'ra takomillashtirilgan;

an'anaviy savdo formati sharoitida savdo faoliyati, savdo xizmatini ko'rsatish va mahsulotlar realizatsiyasi sub'ektlarining raqamli integratsion zanjiriga ko'ra elektron savdo platformasini shakllantirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

O'zbekistonda elektron savdo hajmini internet tizimi, chakana savdoni rivojlantirish, internetga ulangan savdo tashkilotlari darajasi va aholining yalpi daromadini e'tiborga olgan holda oshirishning 2026-yilgacha bo'lgan davrda mo'ljallangan prognoz ko'rsatgihlari ishlab chiqilgan.

supermarketlar faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi mikro va makro muhit omillarining uyg'unligini onlayn savdoni ustuvor tashkillashtirishga ko'ra supermarketlar samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

supermarket biznes jarayonlarini o'zgartirish muammolarini hal qilish uchun ma'lumotlar elektron supermarket platformasi modeli ishlab chiqilgan axborot texnologiyalari bo'limi ishida foydalanilishi mumkin;

B2B va B2C kabi iqtisodiy munosabatlarning raqamli modellari asosida savdo turlarining tasnifi ishlab chiqilgan bo'lib, bu supermarketlarni raqamlashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va savdo maydonchalarini konversiyasini oshirishga imkon beradi;

samaradorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni baholash asosida biznes jarayonlarini boshqarish va zamonaviy elektron savdo faoliyatini rivojlantirish modeli va rejasi taklif etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotning rasmiy manbalaridan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma‘lumotlaridan olinganligi hamda taklif etilayotgan xulosa va tavsiyalarning vakolatli organlar tomonidan amaliyotga tatbiq etilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar elektron tijoratning tashkiliy va tarkibiy elementlarini tasniflash, elektron tijoratni rivojlantirishning konseptual asoslarini takomillashtirish, samaradorlikni oshirishning uslubiy apparatini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalar supermarket resurslaridan samarali foydalanish, biznes-jarayonlarning tashkiliy-boshqaruv modelini optimallashtirish, sohaviy meyoriy hujjatlarni tayyorlash, elektron savdo faoliyatini rivojlantirish hamda “Elektron biznes”, “Raqamli iqtisodiyot”, “Elektron tijorat” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish. O‘zbekistonda elektron savdo faoliyatini rivojlantirish v samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

elektron savdo kategoriyasining iqtisodiy mohiyati aholining savdo xizmatlariga bo‘lgan talabi tovarlarni sotib olish-sotish jarayonida tovarlar ta‘minotini va iste‘molchilar talabi tarkibining raqamli texnologiyalarga ko‘ra to‘lakonligigni shakllantirishga ko‘ra takomillashtirish taklifi 60310500- «Raqamli iqtisodiyot (tarmoq va yo‘nalishlar bo‘yicha)» nomli darslikni tayorlashda foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2023 yil 26 avgustdagi 218 raqamli guvohnomasi). Taklif electron savdo tushunchasi mohiyatining ichki tabiatini yanada aniq ochib berishga muayan darajada xizmat qilgan;

an‘anaviy savdo formati sharoitida savdo faoliyati, savdo xizmatini ko‘rsatish va mahsulotlar realizatsiyasi sub‘ektlarining raqamli integratsion zanjiriga ko‘ra elektron savdo platformasini shakllantirishning maqsadga muvofiqligi boyicha taklif “Farovon.uz” MChJ , “Samarkand Prime Germes”MChJ, “Korzinka.uz” MChJ, “Store plus”, “Orzon” MChJ, “Massa Impex”, “Uzum” XK MChJ supermarketlar faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 25 iyundagi 9/04-25-10588-sonli ma‘lumotnomasi). Taklif elektron savdoning rivojlantirilishiga ko‘ra savdo bilan internet auditoriyasini 17%ga ortishiga muayan darajada xizmat qilgan;

O‘zbekistonda elektron savdo hajmini internet tizimi, chakana savdoni rivojlantirish, internetga ulangan savdo tashkilotlari darajasi va aholining yalpi daromadini e‘tiborga olgan holda oshirishning 2026-yilgacha bo‘lgan davrda mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatgichlari “Farovon.uz” MChJ , “Samarkand Prime Germes”MChJ, “Korzinka.uz” MChJ, “Store plus”, “Orzon” MChJ, “Massa Impex”, “Uzum” XK MchJni faoliyatining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishda foydalilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 25 iyundagi 9/04-25-10588-sonli ma‘lumotnomasi). Prognoz parametrlari

viLOYATda elektron savdo faoliyatini kengaytirish bo'yicha uzoq muddatli vazifalarni belgilash uchun asos bo'ldi.

supermarketlar faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi mikro va makro muhit omillarining uyg'unligini onlayn savdoni ustuvor tashkillashtirishga ko'ra supermarketlar samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirish bo'yicha taklif "Farovon.uz" MChJ, "Samarkand Prime Germes" MChJ, "Korzinka.uz" MChJ, "Store plus", "Orzon" MChJ, "Massa Impex", "Uzum" XK MChJni faoliyatining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishda foydalilgan. (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 25 iyundagi 9/04-25-10588-sonli ma'lumotnomasi). Taklif raqamli savdo imkoniyatlarini kengaytirish hisobiga onlayn-sotuv hajmini 24%ga oshirishda muayan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, 1 ta xorijiy jurnallarda maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etdi.


DISSERTASINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, ilmiy tadqiqot mavzusining respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi aniq belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keng yoritilgan, natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati tushuntirilgan, tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Elektron savdo faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari hamda ularni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari**" nomli birinchi bobida elektron tijorat tadqiqiga konseptual yondashuvlar ko'rib chiqilgan va elektron tijorat rivojlanishining retrospektiv tahlili o'tkazilib, shu asosda uning jadal o'sishining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, zamonaviy elektron savdo faoliyatini boshqarish xususiyatlari va uning samaradorligi ko'rsatkichlari ta'riflarni umumlashtirish orqali baholangan, muallif ta'rifi ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda elektron tijoratning rivojlanishi iqtisodiyotning globallasuvi bilan bog'liq. Jahon savdosi hajmining tez o'sishi, kapitalning harakatchanligi va uning konsentratsiyasi XX asrning 90-yillarida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kengayib, elektron tijorat yirik korporatsiyalarning

odatiy tadbirkorlik faoliyatiga aylangan paytda sodir bo'ldi. 1-chizmada keltirilgan ma'lumotlar o'rtacha 6 foiz miqdoridagi jadal o'sishni ko'rsatadi.



1-chizma. Elektron tijorat hajmining dunyo bo'yicha dinamikasi ⁷

Elektron tijoratning ahamiyati jahon iqtisodiy ko'rsatkichlarida ortib borayotganini e'tirof etib, elektron tijoratni o'rganishga konseptual yondashuvlarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga qadar O'zbekiston pandemiyaga javoban raqamli platformalardan foydalanishni boshlagan yoki undan foydalanishni kengaytirgan firmalar ulushi bo'yicha ikkinchi o'rinni egallab turibdi (mikrofirmalarni hisobga olmaganda 51,2%). ⁸

Shunga qaramay, biznes-jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi hamon past darajada, O'zbekistonda rasman faoliyat yuritayotgan xususiy firmalarning 26% o'z veb-saytlariga ega, bu mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan (63%) ⁹ ancha pastdir, bu xususiy sektorning raqamli makonga kirib borishining sekinlashishi, bu ichki elektron tijorat va transchegaraviy savdo o'rtasida kechikishga olib keladi.


Elektron savdo tushunchasi zamonaviy sharoitlarda doimiy ravishda takomillashib, yangilanib bormoqda, bu esa internet-texnologiyalar, texnologik platformalar, sun'iy intellekt imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liq. Biz **elektron savdoni** quyidagicha ta'riflashimiz mumkin: tovarlarga bo'lgan talabni maksimal darajada qondirish, to'lovlarni amalga oshirish va iste'molchilarning kelajakdagi bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda innovatsion raqamli resurslar orqali tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish jarayoni. Elektron savdo, elektron tijorat tarkibida, so'nggi yillarda "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" da

⁷ Statista ma'lumotlari asosida.

⁸ Панель мониторинг COVID-19 Business Pulse, Всемирный банк, Вашингтон, округ Колумбия. <https://www.worldbank.org/en/data/interactive/2021/01/19/covid-19-business-pulse-survey-dashboard>.

⁹ Jahon bankining COVID-19 Business Pulse so'rovining birinchi bosqichi ma'lumotlari

belgilangan tizimli o'zgarishlar fonida, alohida xo'jalik faoliyati turi sifatida aniq chegaralar va identifikatsion belgilarga ega bo'ldi ¹⁰ (1-rasm).



1-chizma. Yangi O'zbekiston sharoitida elektron tijoratning shakllanish bosqichlari ¹¹

Elektron savdoning samaradorligi — bu texnologiyalar, usullar va savdo qoidalarining mijozlarning (insonlar, davlat va biznes) ehtiyojlariga mos kelishini belgilovchi kategoriya bo'lib, savdo faoliyatining foydaliligini ta'minlash maqsadida ishlatiladi. Elektron savdoning miqyosi tashkilotlarning raqobatbardoshligini


¹⁰ Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы»

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan

oshirgan sayin kengayib bormoqda, shuning uchun elektron savdoning samaradorligini tashkilot, sanoat, mintaqa, davlat va dunyo darajasida ajratish maqsadga muvofiqdir. Samaradorlik ko'rsatkichlari elektron savdoning modeli va tadqiqot darajasiga qarab kombinatsiyalash mumkin. Ya'ni, biz B2C modelidagi savdoning samaradorligini alohida tashkilot darajasida mijozning onlayn savdo orqali o'rtacha xarid qilish summasi, bir xil mijoz tomonidan xaridlar chastotasi, mijozlarning sadoqat darajasi, xaridlar konversiyasi kabi ko'rsatkichlar orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Bularning barchasi samarali internet-marketing, kontentning tushunarli bo'lishi, buyurtma berish va to'lovlarni amalga oshirish qulayligi natijasidir.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirishning hozirgi holati va samaradorligini oshirish tahlili”** nomli ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida savdo faoliyatini rivojlantirishning holati va tendensiyalari ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Samarqand viloyatida elektron tijoratni rivojlantirish, supermarketlarning raqobatbardosh afzalliklari va ularni raqamli makonga aylantirish imkoniyatlarini sotsiologik o‘rganish asosida zamonaviy supermarketlarda elektron savdo faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning PEST tahlili o‘tkazildi va supermarketlarning savdo faoliyatiga ushbu omillarning ta’sir kuchini tavsiflovchi integral ko‘rsatkich hisoblab chiqildi.

Elektron tijorat chakana va ulgurji savdoning innovatsion shakli bo‘lib, u iqtisodiyotdagi zamonaviy o‘zgarishlarning lokomotiviga aylanib bormoqda. Elektron tijoratning mamlakatimiz va hududlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushini kengaytirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, yalpi hududiy mahsulot dinamikasi, daromadlari yashash minimumidan past bo‘lgan aholi ulushi, daromad darajasi, inflyatsiya, transchegaraviy savdoning kengayishi va boshqalar kabi parametrlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.



2-chizma. O‘zbekistonda ichki savdo dinamikasi¹²

¹² www.stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi materiallari

O‘zbekistonning chakana savdo aylanmasi 2023-yil yakuni bo‘yicha 26,2 million AQSH dollarini tashkil etdi (taqqoslash uchun: Rossiyada – 488,7 million AQSh dollari, Qozog‘istonda – 39,4 million dollar, Belarusda – 15,5 million dollar). O‘zbekistonda 2023-yil oxiriga kelib aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi oyiga 68,4 dollarni tashkil etadi (2.1-rasm). Oxirgi 3 yilda respublika savdo tuzilmasida chakana va ulgurji savdoning ulushi deyarli tenglashdi.

2019 yilgacha chakana va ulgurji savdoning o‘rtacha o‘shish sur‘ati 10% gacha bo‘lgan, koronavirus pandemiyasi sharoitida mamlakat iqtisodiyotining to‘liq yopilishi sharoitida o‘shish sur‘ati 2.4% gacha pasaygan. Shubhasiz, bu davr onlayn savdo imkoniyatlarini ochdi, bu esa keyinchalik 10% dan yuqori o‘shish sur‘atini keltirib chiqardi. An‘anaviy savdo va elektron savdoning rivojlanishining kumulyativ ta‘siri har yili chakana va ulgurji tovar aylanmasini 24-33% ga oshirish jarayonlarini tezlashtirmoqda.

Respublikada elektron tijorat bozoridagi ta‘minot darajasi va sifati yetarli emasligiga qaramasdan, mahsulotlarga, internet-do‘kon xizmatlariga, infratuzilmani yaxshilashga, qulay mobil internetga talabning tez sur‘atlar bilan o‘shishi kuzatilmoqda. 2023-yil yakuni bo‘yicha respublikada elektron tijorat hajmi 543 million AQSH dollarini tashkil etdi, internet foydalanuvchilarining 1/3 qismi (9,6 million kishi) bozorlardan tovar va xizmatlar xarid qilishda faol ishtirok etmoqda.

Respublikada umumiy savdo hajmida elektron tijoratning ulushi ortib bormoqda. Oxirgi 7 yil ichida elektron tijorat sohasidagi tub o‘zgarishlar sharoitida elektron tijorat ulushi 1,04 foizgacha oshdi, 2017 yilda esa bu ko‘rsatkich 0.01 foizga zo‘rg‘a yetdi. Elektron tijoratning maksimal aylanmasi 2023 yilda B2B ulgurji savdosining jadallashuvi hisobiga kuzatildi, o‘shanda respublikadagi ko‘plab savdo tashkilotlari elektron savdo maydonchalarini ishga tushira boshlagan.

1-jadval

O‘zbekistonda chakana savdo aylanmasida elektron savdoning ulushi¹³

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Chakana savdo hajmi, mlrd.so‘m	88071.6	105229,9	133195,2	199518,8	252056,6	270687,2	330448,1
O‘shish sur‘ati,%	100,0	119,4	126,5	147,7	126,3	107,4	122,0
Ulgurji savdo hajmi, mlrd.so‘m	42185,9	63185,9	93322,8	120451.1	172790,1	258444,0	330062,9
O‘shish sur‘ati,%	100,0	149,7	147,6	129,0	143,4	149,5	127,9
Umumiy savdo hajmi, mlrd.so‘m	130275,5	164415,8	226518	319969,9	424846,7	529131,2	660511
O‘shish sur‘ati,%	100,0	126,2	137,7	141,2	132,7	114,9	124,8

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Elektron savdo hajmi, ming AQSH dollari	14,6	40,8	275,3	481300	168000	311000	543000
O'sish sur'ati,%	100,0	2.8 6op	6.7 6op	17506op	34,9	157,1	174,5
O'zbekiston Markaziy bankining 1 AQSH dollarining so'mga nisbatan kursi	8100	8339	9507	10477	10838	11225	12750
O'sish sur'ati,%	100,0	102,9	114,0	109,8	103,4	103,5	113,5
Chakana savdo hajmi, mlrd.so'm	0.009	0.002	0.01	0.011	0,016	0.60	1,04
O'sish sur'ati,%							

O'zbekistonda elektron savdoni rivojlantirish tendensiyalari

1) Elektron savdo maydonchalari qiymat zanjirining bo'g'inidir. Savdoni raqamli o'zgartirish yo'lidagi birinchi qadam tovar va xizmatlarni raqamlashtirish hamda ularni cheklangan funkcionalligi bilan ajralib turadigan savdo maydonchalari va onlayn-do'konlarga joylashtirish bo'ldi.

2) Raqamli platformalarni rivojlantirish. Elektron tijoratni rivojlantirishning keyingi bosqichida platformalar samaradorlikni oshirish uchun asosiy jarayonlarni birlashtiradi.

3) Bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiluvchi va oradagi chegaralar o'chib ketadigan tizimlar integratsiyasi. Ushbu bosqichda tizimlar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib, yagona elektron tijorat muhitini yaratadi. Platformalar ham, tovarlar va xizmatlarning individual ishlab chiqaruvchilari, B2C va B2B segmentlari iste'molchilari faol ma'lumot almashadi va bir vaqtning o'zida tovarlar, xizmatlar va raqamli aktivlarning ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari sifatida namoyon bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, respublikada chakana savdoning innovatsion rivojlanishi iste'molchilarning an'anaviy supermarketlar joriy etayotgan market pleyslar va internet-do'konlarni tanlashiga bo'lgan ta'sirning kuchayishi bilan bog'liq. Respublikada onlayn bozorlar savdosi hajmining o'sish sur'ati supermarketlar, bozorlar va boshqa chakana savdo tashkilotlarining o'sish sur'atlaridan sezilarli darajada tezdir. Supermarketlar ko'pincha reklama, yangi mahsulotlar bilan tanishish, ommaviyligini ta'minlash dasturlari va PR kampaniyalariga qaratilgan veb-saytlar orqali tovarlarni sotmaydi. Supermarket veb-saytlari ko'p funksiyali bo'lmagani, ko'p kanalli emasligi uchun, qoida tariqasida, an'anaviy savdoni afzal ko'ruvchi sodiq bo'lmagan auditoriyaga ega. Veb-saytlarni modernizatsiyalash, rebrending qilish, market pleyslarga aylantirish an'anaviy chakana savdo tashkilotlari hal qilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar bo'lib, bu ularga bozordagi o'z o'rnini saqlab qolish va savdo tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Elektron tijoratni rivojlantirishga tahdid va imkon yaratuvchi omillarning PEST tahliliga asoslanib, biz respublikada elektron tijoratni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini taklif qilamiz:

1) foydalanuvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligi sohasidagi malakasi va bilim darajasini oshirish, tahdidlarni bartaraf etish va hodisalar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish;

2) mahalliy savdo tashkilotlarini yirik xorijiy market pleyslar va internet makonida o'zini namoyon etgan onlayn-do'konlar bilan uyg'unlashtirish;

3) Platformalarni modernizatsiya qilish uchun sun'iy intellektga asoslangan ochiq kodli dasturiy ta'minot, AR va VR-texnologiyalari (to'ldirilgan va virtual voqelik) ChatGPT chatbotidan foydalanish;

4) Elektron tijorat bo'yicha yetakchi xorijiy davlat (Xitoy, Rossiya, AQSH) lar bilan birgalikda onlayn bozorlarni ochish, pochta aloqasi va yetkazib berish xizmatlarini rivojlantirish;

5) Kredit imtiyozlarini taqdim etish: pasaytirilgan foiz stavkalari, elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar uchun uzoq muddatli kreditlash va soliq imtiyozlari, market pleyslarda, onlayn-do'konlarda va mobil bank ilovalarida taqdim etiladigan keng turdagi iste'mol kreditlari.

Samarqand viloyatidagi yetakchi savdo tashkilotlarining o'tgan yildagi moliyaviy ko'rsatkichlari shuni ko'rsatdiki, elektron savdo maydonchalari hali internet tarmog'iga kirish darajasi yetarlicha bo'lmagan supermarketlar ko'rsatkichlaridan tez o'zib ketmoqda. "Uzum market" sof foydasining o'sish sur'ati 297 foizni, B2B va B2C modellari asosida biznes jarayonlarini faol ravishda elektron shaklga o'tkazayotgan "Korzinka" 341 foizni tashkil etdi, an'anaviy supermarketlarning o'sishi esa ulardan sezilarli darajada past bo'ldi - 175%.

2-jadval

Samarqand viloyati savdo tashkilotlari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari ¹⁴

Ko'rsatkichlar	Yillar	«Farovon.uz»	«Korzinka.uz»	«Orzon»	«Makro»	«Uzum Market»
Sof foyda, mlrd so'm	2022	126,9	9458	4146,3	436,3	16384
	2023	222,3	32259,6	8440,0	786,4	48702
Savdo rentabelligi, %	2022	11,0	18,0	13,0	10,0	27,0
	2023	10,0	23,0	16,0	12,0	31,0
Asosiy vositalar rentabelligi, %	2022	3,1	4,5	3,3	2,3	3,3
	2023	3,4	5,8	3,6	2,6	6,5
Fond unumdorligi, so'm	2022	1,43	1,52	1,11	1,15	7,23
	2023	1,48	1,58	1,24	1,17	1,24
Joriy likvidlik koeffitsienti	2022	2,2	3,8	2,5	1,6	3,6
	2023	2,5	4,1	2,7	1,9	3,8


¹⁴Ko'rsatkichlar muallif tomonidan savdo tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Mutlaq likvidlik koeffitsienti	2022	0,27	0,49	0,31	0,20	0,65
	2023	0,28	0,50	0,42	0,21	0,76
Veb-sayt yoki mobil ilovaga tashriflar (millionlab tashriflar)	2022	-	0,14	0,06	-	1,876
	2023	-	0,23	0,13	-	2,364

